GCCR
Global Conference on Contemporary Research

GLOBAL CONFERENCE ON CONTEMPORARY RESEARCH



CONFERENCE THEME:

SUSTAINABLE FUTURES:
INNOVATION, DIGITAL TRANSFORMATION AND GLOBAL COLLABORATION THROUGH CONTEMPORARY RESEARCH

INNOVATION | DIGITAL TRANSFORMATION | GLOBAL COLLABORATION | SUSTAINABLE FUTURES

JOURNAL

PEER-REVIEWED PROCEEDINGS

NOVEMBER 2026

TORONTO, CANADA

gccr.academy

YOSHLAR NUTQINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI XUSUSIDA

Kenjayeva Maloxat Baxodirjonovna

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Arabshunoslik oliy maktabi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar nutqi sotsiolingvistik hodisa nuqtayi nazaridan sifatida tahlil qilinadi. Unda yoshlarga xos tilning so'zlashuv variantlari, jargon va sleng birliklari, sheva, adabiy til, o'zlashmalar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanish shuningdek raqamli muloqotning nutqiy xulq-atvorga ta'siri yoritiladi. Yoshlar nutqining shakllanishida uning muhiti jumladan voyaga yetayotgan oilasi,ta'lim olayotgan maskani, tengdoshlar guruhi, ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni izohlanadi. Maqolada yoshlar nutqidagi sotsiolingivistik o'zgarishlarni faqat til me'yorining buzilishi sifatida baholamasdan, ularni ijtimoiy identifikatsiya, kommunikativ moslashuv va tilning uzluksiz taraqqiyot ko'rinishi sifatida o'rganish zarurligi asoslanadi. Shu bilan birga, adabiy til savodxonligini mustahkamlash va yoshlarning ijodiy til imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, yoshlar nutqi, sleng, jargon, kod almashinuvi, til variativligi, lingvistik identifikatsiya, raqamli muloqot, diglossiya, arab sotsiolingvistikasi.

Kirish

Til jamiyat hayotining eng faol va ta'sir ko'lami keng hodisalaridan biri hisoblanadi.. U faqat axborot almashinuv vositasi bo'libgina qolmay, insonning shaxsiyatini, qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini, qanday qadriyatlarni e'tirof etishini ham ko'rsatib beradi. Jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy va texnologik o'zgarishlar, eng avvalo, tilda o'z aksini topadi. Shu sababli tilni jamiyatdan ajratib o'rganish mumkin emas,bu ikkisi yaxlit obyekt hisoblanadi. Sotsiolingvistika aynan til va ijtimoiy hayot o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tadqiq etuvchi fan sifatida til birliklarining kim tomonidan, qayerda, kimga, qanday vaziyatda va nima maqsadda qo'llanishini o'rganadi.

Bu jihatdan yoshlar nutqi sotsiolingvistikaning alohida e'tibor talab qiladigan va tadqiq

qilinishi kerak bo’lgan yo‘nalishlaridan biridir. Chunki yoshlar jamiyatdagi yangiliklarni tez qabul va tadqiq qiladigan, yangi kommunikativ shakllarni eng birinchi sinab ko‘radigan va tilga yangi birliklarni olib kiradigan jamiyatning asosiy faol bo’g’imi hisoblanadi. Ularning nutqida zamonaviy texnologiyalar, global madaniyat, ta’lim, kasbiy muhit va tengdoshlar bilan munosabatlar ta’siri sezilardi darajada namoyon bo’ladi. Bugun birgina suhbat davomida o‘zbekcha jumlaga o’zga xalqlar tilidan semantik,leksik birliklarning qo‘shilishi, ijtimoiy tarmoqdagi qisqartmalar, memlar va emojilarning muloqot mazmunini to‘ldirishi odatiy holga aylanib ulgurdi . Buning ta’sir nafaqat tiljarayonlarida, balki yoshlar qarashlarida ham aks etmoqda. Endilikda ular uchun hissiyotlar va kechinmalarini ifodalashda faqatgina so’z yetarli emas,ta’bir joiz bo’lsa so’z emoji o’rnini to’liq ifodalay olmayapti.

Bunday jarayonlarni shunchaki “yoshlar tilni buzmoqda” degan biryoqlama hukm bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ayni paytda barcha yangiliklarni mutlaq ijobiy deb qabul qilish ham mumkin emas. Muhim vazifa — yoshlar nutqidagi o‘zgarishlarning sabablarini, vazifalarini va oqibatlarini xolis tahlil qilish, adabiy til me’yorlari bilan erkin muloqot shakllari o‘rtasidagi muvozanatni topishdir.

Yoshlar nutqi sotsiolingvistik tadqiqot obyekti sifatida

Sotsiolingvistikada til foydalanuvchilaring yoshi til variativligini belgilovchi muhim ijtimoiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Bir til jamoasiga mansub bolalar, o‘smirlar, yoshlar va katta avlod vakillari bir xil grammatik tizimdan foydalansalar-da, ularning so‘z tanlashi, talaffuzi, murojaat shakllari, nutq sur’ati va muloqot strategiyalarida farqlar va o’zgarishlar kuzatiladi. Bu farqlar biologik yoshning o‘zi bilan emas, balki har bir avlod yashayotgan davr, madaniy muhit va ular faol foydalanayotgan kommunikatsiya vositalari bilan ham bog‘liq.

Yoshlar nutqi deganda faqat ma’lum yosh oralig‘idagi kishilarning so‘zlashuv uslubi tushunilmaydi. U, avvalo, ijtimoiy guruh ichida shakllanadigan, guruh a’zolarining o‘zaro yaqinligini ko‘rsatadigan va tashqi guruhlardan ramziy farqlanishga xizmat qiladigan nutqiy amaliyotlar majmuasidir. Masalan, muayyan ibora yoki qisqartmani faqat tengdoshlar davrasida ishlatish guruhga mansublikni bildirishi mumkin. Xuddi shu birlik rasmiy

yig‘ilishda noo‘rin tuyulishi tabiiy. Demak, til birligining ma’nosi uning lug‘aviy mazmuni bilangina emas, qo‘llanish o’rni bilan ham belgilanadi.

Uilyam Labovning til variatsiyasi bo‘yicha tadqiqotlari til shakllari ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Piter Trudgill esa talaffuz va grammatik variantlarning ijtimoiy guruh, hudud va nutq qilingan holat bilan aloqasini tahlil qilgan. Ushbu yondashuvlar yoshlar nutqini ham tasodifiy xatolar yig‘indisi sifatida emas, balki muayyan qonuniyatlarga ega ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Yoshlar nutqini tadqiq etishda bir necha asosiy mezon muhim: yosh va avlod farqi; hududiy mansublik; ta’lim darajasi; kasbiy yoki akademik muhit; jins va ijtimoiy rol; ko‘p tillilik tajribasi; raqamli platformalardan foydalanish darajasi. Ushbu omillarning har biri alohida ta’sir ko‘rsatishi mumkin, biroq real muloqotda ular bir-biri bilan kesishadi. Masalan, xorijiy oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan, ingliz tilini biladigan va faol blog yuritadigan yoshning nutqiy repertuari boshqa ta’lim va media muhitiga ega tengdoshinikidan farq qilishi tabiiy.

Yoshlar nutqining leksik va uslubiy xususiyatlari

Yoshlar nutqining eng ko’p ko‘zga tashlanadigan belgilaridan biri — leksik yangilanishdir. Sleng, jargon, argot, qisqartma, o‘zlashma va obrazli iboralar yoshlar muloqotida muntazam foydalaniladi. Bu tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Sleng — norasmiy muloqotda qo‘llaniladigan, ko‘pincha muayyan davr yoki guruhga xos bo‘lgan ifodalar majmui. Jargon — ma’lum kasb, mashg‘ulot yoki ijtimoiy guruh vakillari o‘rtasida ishlatiladigan maxsus so‘z va iboralar. Argot esa ayrim guruhlar ichki muloqotini ma’lum kishilar iste’moliga xoslash yoki yashirish vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan leksik birlikdir.

Masalan, talaba yoshlar orasida “motivatsiya”, “stress”, “sessiya”, “kredit”, “deadline”, “grant”, “plagiat” kabi birliklar ta’lim muhitining kundalik lug‘atida juda faol. Ijtimoiy tarmoq manzillarida esa “post”, “story”, “reels”, “layk”, “kontent”, “trend” ,“heshteg” “chellendj” singari birliklar tez-tez uchraydi. Bu so‘zlarning ayrimlari o‘zbek tilida muqobil birligiga ega bo‘lsa-da, ularning xalqaro muloqot jarayonlarida keng tarqalishi va platforma interfeyslarida

aynan shu shaklda berilishi yoshlar nutqida mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi.

Sleng birliklarining muhim vazifalaridan biri — emotsional munosabatni qisqa va ta’sirchan ifodalash. Yoshlar hazil, kinoya, maqtov, norozilik yoki hayratni birgina so‘z yoxud ibora orqali ifodalashi mumkin. Bunday birliklar tez o‘zgaradi: kecha ommalashgan ibora bugun eskirishi ,yoshlar tili bilan aytganda “trenddan qolishi”, boshqa platformada esa yangi ma’no kasb etishi mumkin. Demak, yoshlar leksikasi uzluksiz o’zgaruvchan tizimdir.

Shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki, slengdan foydalanish nutq madaniyatining yo‘qligini anglatmaydi. Inson vaziyatga qarab nutqda turli birliklarni tanlay olishi kommunikativ kompetensiyaning belgisi hisoblanadi. Do‘stlar davrasida erkin va qisqa ifodalar, ilmiy anjumanda esa terminlarga asoslangan rasmiy birliklar ishlatilishi tabiiy. Muammo norasmiy birliklarning mavjudligida emas, balki yoshlar orasida munosib birliklarni ishlatishga e’tiborning kamayishida.

Kod almashinuvi, o‘zlashmalar va ko‘p tillilik

Yoshlar nutqida o‘zbek, rus va ingliz tillari elementlarining bir muloqot doirasida almashib kelishi ko‘p kuzatiladi. Sotsiolingvistikada bir tildan ikkinchi tilga o‘tish kod almashinuvi (code-switching), bir til birliklarining boshqa til grammatik qurilmasiga singdirilishi esa kod aralashuvi (code-mixing) tushunchalari bilan izohlanadi. Bu hodisalar ko‘p tilli jamiyatlarda kommunikativ ehtiyoj, suhbatdoshga moslashish, mavzuning xususiyati yoki shaxsiy identifikatsiya maqsadida yuzaga keladi.

Masalan, “Bugun meeting bor”, “ Loyiha bo‘yicha feedback olamiz” kabi jumlada inglizcha birliklar o‘zbekcha sintaktik qurilma ichida ishlatilgan. Bunday nutqning sababini faqat ingliz tilining global nufuzi bilan izohlab bo‘lmaydi. Ayrim sohalarda terminning inglizcha shakli aniqroq yoki odatiyroq bo‘lishi, suhbatdoshlarning umumiy bilim doirasiga mos kelishi o’rin tutadi. Biroq kod almashinuvi nazoratsiz tus olsa, ayniqsa rasmiy va ilmiy nutqda, fikrning aniqligi hamda o‘zbekcha muqobillarning faol qo‘llanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois til siyosati va ta’lim amaliyotida ikki vazifa uyg‘un bajarilishi kerak: xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatini kengaytirish va o‘zbek tilining ilmiy, texnik hamda ommabop

mazmun yaratish salohiyatini salohiyatini saqlab qolish. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, kod almashinuvi ko‘pincha strategik tanlov bo’ladi. So‘zlovchi bir tilga o‘tish orqali mavzuni ajratishi, hazilni kuchaytirishi, iqtibos keltirishi yoki fikrini ifoda etishni osonlashtirishi mumkin. Odatda inson fikr bildirmoqchi bo’lgan mavzusi haqida qaysi tilda asosiy tushunchalarni o’rgangan bo’lsa o’sha tilda bu mavzuga doir o’z qarashlarni ifodalashi oson bo’ladi. Shuning uchun bunday birliklarni qayd etish bilangina cheklanmay, ularning qaysi vaziyatda, kimlar o‘rtasida va qanday kommunikativ maqsadda ishlatilganini ham aniqlash lozim.

Raqamli muhit va yoshlar nutqining o‘zgarishi

Ijtimoiy tarmoqlar manzillari yoshlar nutqining shakllanishi tezligini tubdan o‘zgartirdi. Ilgari muayyan guruh doirasida ishlatilgan ibora og‘zaki muloqot orqali asta-sekin yoyilgan bo‘lsa, bugun qisqa video yoki ommabop post orqali bir necha soat ichida minglab foydalanuvchilarga yetib borishi mumkin. Telegram, Instagram, TikTok va YouTube nafaqat axborot almashish maydoni, balki yangi so‘zlar, talaffuz shakllari va nutqiy odatlar keng tarqaladigan muhitga aylandi.

Raqamli muloqotda qisqartmalar, imlo me’yoridan chekinish, harf takrorlari, emojilar, stikerlar va memlar muhim pragmatik vazifani bajaradi. Masalan, yozishmada nuqta qo‘yish, undov belgisini takrorlash yoki kulgi belgilaridan foydalanish xabarning hissiy ohangini o‘zgartirishi mumkin. Demak, raqamli nutq faqat yozma tilning soddalashtirilgan ko‘rinishi emas; u matn, tasvir, tovush va ramzlar birikadigan multimodal kommunikatsiya shaklidir.

O‘zbek yoshlar nutqining ijtimoiy omillari va dolzarb masalalari

So’nggi yillarda Vatanimizda yoshlar nutqi bir nechta til va madaniyat bilan aloqador sharoitda shakllanmoqda. O‘zbek tili kundalik hayot va milliy muloqotning asosiy vositasi bo‘lib qolayotgan bir paytda rus tili, ingliz tili hamda boshqa tillarning ta’siri ta’lim, kasb, texnologiyada nihoyatda faol qo‘llanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shahar va qishloq muhitidagi farqlar, oilada qo‘llanadigan til (ayniqsa oilada ikkitillilik muhiti bo’lsa), maktab va oliy ta’limdagi til tajribasi, migratsiya, xorijiy kontent iste’moli hamda kasbiy yo‘nalishda

faol til birliklari nutqiy tanlovlarga ta’sir qiladi. Masalan, axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi talaba bilan gumanitar soha talabasi bir xil mavzuni muhokama qilganda turli terminlardan foydalanishi mumkin. Bu farq ularning biri tilni yaxshi, ikkinchisi yomon bilishini anglatmaydi; ko‘pincha ularning bilim sohasi va kommunikativ ehtiyojlari turlicha bo‘ladi.

Dolzarb masalalardan biri — o‘zbek tilida zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkoniyatining xalqaro munosabatlar,taraqqiyot sababidan kengayishidir. Yangi termin paydo bo‘lganda uning o‘zbekcha muqobilini ishlab chiqish, muqobilning mazmunini aniq belgilash va uni ta’lim hamda ommaviy axborot vositalarida izchil qo‘llash zarur. Aks holda, xorijiy birliklar tayyor shaklda ommalashib, o‘zbekcha ifoda imkoniyatlari yetarlicha ishga solinmay qolishi mumkin. Biroq o‘zlashmalarni butunlay rad etish ham til taraqqiyotining tabiiy qonuniyatlariga zid. Muhim mezon — tushunarlilik, me’yoriylik va kommunikativ ehtiyoj.

Xulosa

Yoshlar nutqi jamiyatdagi til jarayonlarining eng harakatchan qatlamlaridan biri bo‘lib, unda ijtimoiy o‘zgarishlar, avlodlar tajribasi, madaniy ta’sirlar va texnologik yangiliklar mujassamlanadi. Sleng, jargon, o‘zlashma, kod almashinuvi, sheva va raqamli ifoda shakllari yoshlarning o‘zaro munosabati hamda ijtimoiy identifikatsiyasini namoyon etadi. Bu birliklarni faqat me’yor buzilishi sifatida baholash hodisaning ijtimoiy va kommunikativ mohiyatini cheklab qo‘yadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar nutqiga ilmiy yondashuv ikki muhim tamoyilga tayanishi lozim: bir tomondan, tilning tabiiy yangilanishi, ko‘p tillilik va ijodiy ifoda imkoniyatlarini e’tirof etish; ikkinchi tomondan, adabiy o‘zbek tilini puxta egallash, davlat tashkilotlari rasmiy hujjatlardagi o’rnini saqlab qolish. Ularning nutqiy salohiyatini tanqid bilan cheklash emas, bilim, ijod va mas’uliyat bilan rivojlantirish jamiyatning umumiy til madaniyatini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McNeil, K. (2022). “We don’t speak the same language”: language choice and identity on a Tunisian internet forum. International Journal of the Sociology of Language, 278,

51–80. https://doi.org/10.1515/ijsl-2021-0126

2. Ferguson, C. A. (1959). Diglossia. Word, 15(2), 325–340.
3. Gumperz, J. J. (1982). Discourse Strategies. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Holmes, J. (2013). An Introduction to Sociolinguistics. 4th ed. London: Routledge.
5. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
6. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. 4th ed. London: Penguin.
7. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2015). An Introduction to Sociolinguistics. 7th ed. Malden: Wiley Blackwell.
8. 10. Horesh, U. (2021). Sociolinguistic Variation and Variation in Sociolinguistics. In: The Cambridge Handbook of Arabic Linguistics, 181–198. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108277327.009